



ETIKANING NAZARIY ASOSLARI VA UNING FALSAFIY YO'NALISHLARI

Shahrisabz davlat pedagogika institute xorijiy til va adabiyot yo'nalishi XT

3-24 guruh talabalari

Yunusova Maftuna Ilhom qizi

Elboboyeva Xusnida Erkin qizi

Annotasiya. *Ushbu maqola Etikaning nazariy asoslari, uning falsafiy yo'nalishlari hamda ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqalarini tahlil qiladi. Etika insoniyat tafakkurining fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lib, axloqiy me'yorlar, qadriyatlar tizimi va axloqiy qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganadi. Maqolada normativ va deskriptiv etika, deontologiya, utilitarizm, axloqiy relativizm kabi asosiy etik konsepsiyalar muhokama qilinadi hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi tatbiqi ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Etika, normativ va deskriptiv etika, deontologiya, utilitarizm, axloqiy relativizm*

Astract: *This article examines the theoretical foundations of ethics, its philosophical directions, and its interactions with social institutions. Ethics is one of the main branches of human thought, studying moral norms, value systems, and the process of ethical decision-making. The article discusses fundamental ethical concepts such as normative and descriptive ethics, deontology, utilitarianism, and moral relativism, analyzing their application in modern society based on scientific evaluation.*

Keywords: *Ethics, normative and descriptive ethics, deontology, utilitarianism, moral relativism*



Аннотация. Данная статья анализирует теоретические основы этики, её философские направления и взаимодействие с социальными институтами. Этика является одной из фундаментальных областей человеческой мысли, изучая моральные нормы, систему ценностей и процесс принятия этических решений. В статье рассматриваются основные этические концепции, такие как нормативная и дескриптивная этика, деонтология, утилитаризм и моральный релятивизм, а также их применение в современном обществе на основе научного анализа.

Ключевые слова: этика, нормативная и дескриптивная этика, деонтология, утилитаризм, моральный релятивизм.

Kirish. Etika – bu inson xulq-atvorining axloqiy jihatlarini o‘rganadigan falsafiy fan bo‘lib, uning asosiy vazifasi axloqiy qadriyatlar, me‘yorlar va tamoyillarni aniqlash, asoslash va tahlil qilishdan iborat. U insonlarning to‘g‘ri va noto‘g‘ri, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik kabi tushunchalar asosida qanday harakat qilishini tushunishga intiladi. Etika falsafaning ajralmas qismi bo‘lib, u insoniyat tarixida qadimgi yunon faylasuflari (Sokrat, Platon, Aristotel) tomonidan shakllantirilgan va keyinchalik Kant, Bentham, Mill kabi mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan. Bugungi kunda etika nafaqat nazariy muammolarni hal qilishga, balki amaliy muhitda axloqiy qarorlarni qabul qilishga ham yordam beradi.

Etika haqida tushuncha.

Etika (qadimgi yunoncha: ἠθική [φιλοσοφία] – „axloq falsafasi“, ἦθος (ētos) – „odat“) shaxs yoki jamiyat odatlarini, axloq normalarini o‘rganuvchi hamda belgilovchi falsafiy tadqiqotdir. U „to‘g‘ri“–"noto‘g‘ri", „yaxshi“–"yomon" tushunchalarini tahlil qiladi. Etika meta-etika (etika konseptlari), normativ etika (etik qiymatlarni belgilash) va amaliy etika (etik qiymatlarni ishlatish) bo‘limlaridan iborat. Etika axloqshunoslikning falsafiy-nazariy muammolarini va



axloqqa doir didaktik-amaliy asarlarni o'z ichiga oladi. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikoyatlar, hikmatlar, naqlar, maqollar tarzida bayon etadi, kishilarga axloqning mohiyatini tushuntirib, falsafiy xulosalar chiqaradi, ularga axloqiy qonun-qoidalarni o'rgatadi.

Etikaning quyidagi mezoniy tushunchalari – kategoriyalari bor: fazilat va illat, yaxshilik va yomonlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayotning ma'nosi va boshqalar. Axloq inson va jamiyat hayotining barcha (shaxsiy, jamoaviy, kasbiy va hokazo) jabhalarini qamrab olganligi tufayli uni o'rganuvchi etika barcha fanlar bilan aloqador. Ayniqsa, uning ma'naviyat tizimidagi fanlarga ta'siri katta. Etikaning estetika bilan bog'liqligi san'at vositasida ro'y beradi; har bir san'at asarida axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi, san'atkor o'z davri axloqiy darajasini va unga munosabatini badiiy qiyofalar orqali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi.

Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi obektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, Shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir Shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarning majmuidir. Inson hech qachon jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, hayot kechiradi, o'zining butun hayoti va faoliyati davomida boshqa ko'plab insonlar bilan muloqotda bo'ladi. Bu insonning o'z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishi zaruriyati bilan bog'liq. Sharq xalqlarida, asosan o'zbeklarda insoniy munosabatlar zaminida birinchi navbatda axloq yotadi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar zaminida ham axloqiy mezonlar ustunlik qiladi.

Axloq - manaviyatning amalda namoyon bo'lishi. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda aks etadi. Inson manaviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Ma'naviyat – his



etiladigan, anglanadigan, oqilonalikka asoslangan botiniy qudrat bo'lsa, axloq bevosita har bir shaxsning o'zgalarga nisbatan manaviy munosabatini anglatadi. shu sababli axloqiy tushunchalar ayni paytda manaviy tushunchalar sifatida etirof etiladi. Zotan, axloq insof va adolat, iymoniylik va halollik, mehr va muruvvat, saxovatpeshalik va bag'rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g'amxo'rlik singari manaviy tushunchalarni insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan manaviy hodisadir. Zero, «Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida Shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'zo'zini idora qilish shakllari va meyori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga

xos bo'lgan manaviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir» «Axloq» - arabcha so'z bo'lib, kishining tabiati, muomala, xulq- atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakat odobi degan manolarni anglatadi. Ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarni o'zida mujassam etadi.

Axloq bo'lmagan joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat axloq zaminidagina insonlarda xayotning mazmuni va maqsadi; jamiyat oldidagi burchi va masuliyati; boshqa axloqiy tushunchalar va meyorlarga muayyan munosabat shakllanadi.

Axloqshunos olim, A.Sher axloqqa o'zgacha ta'rif beradi: "Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovliqismini axloq egallaydi.

Odob - inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.



Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli tasir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq - jamiyat, zamon, bazan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi manaviy hodisa.” Etika fan sifatida axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat rivojida o‘rni, taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganuvchi va haqiqatligi amalda isbotlangan bilimlar majmuidir. Etika fani umumiy etika nazariyasi, tarixiy etika, qadriyatlar etikasi, kasb etikasi va axloqiy tarbiya nazariyasi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Jumladan, etika nazariyasi axloqning tabiati, mohiyati, xususiyati, tarkibiy qismlari, jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini o‘rganadi. Tarixiy etika axloqning kelib chiqishini, uning tarixiy taraqqiyot qonunlarini, har xil nazariyalarning tarixdagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarini tadqiq etadi.

Qadriyatlar etikasi axloqiy meyorlarni axloqiy meros sifatida shakllanishi hamda avlodlardan avlodga o‘tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar tizimini o‘rganadi. Kasb etikasi har bir kasb-hunarga xos axloqiy (norma) meyor, (prinsip) tamoyillar va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi. Axloqiy tarbiya nazariyasi axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va

usullarini o‘rganadi.

Etika fanining tarkibiy qismlari o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lib, doimo uzviylikni taqozo etadi va to‘ldirib turadi. Arastu “Katta axloq kitobi”da shunday deydi: “Etika - axloq muammolari haqida gapirishdan avval biz axloq nimaga taalluqli ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gapning lundasini aytsak, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. Chindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega



bo‘lmagan, yani munosib bo‘lmagan odam faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo‘lmoq – fazilatlar egasi - fozil bo‘lmoq, demakdir. Zero, ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan odam axloqan fazilatli odam bo‘lmog‘i kerak. Xullas, etika, axloq siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir. shuning uchun axloqni bimalol siyosat deb atash mumkin.”

Axloq normalari, axloqiy yetuk lik mezonlari malum bir tarixiy davrning, sharoitlarning imkoniyati va ehtiyoji bilan belgilanadi. Axloqlilik va axloqsizlikning mezonlari bu har bir muayyan davrdagi kishilarning xatti - harakatlarini konkret sharoitlardan, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda taqiqlash yoki maqullashdir. Axloqiy taqiqlar esa jamoatchilik fikri, qonunlar turli e‘tiqodlar asosida belgilanadi. Axloqiy yetuk lik darajasini ham bir shaxs emas, balki jamoatchilik belgilaydi. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni axloqiy yoki g‘ayriaxloqiy deb baholash jamiyat azolarining iymoni, e‘tiqodi, dunyoqarashi, manfaati darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Axloqshunoslik va pedagogika. Axloqshunoslik pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta‘lim berish jarayonlarini pandnasihatlarsiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois axloqshunoslik o‘zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi ta‘lim-tarbiya o‘zini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Axloqshunoslik va ruhshunoslik. Qadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe‘l-atvori va mayl-istaklarini o‘rganadi. Lekin bu o‘rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe‘l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi. Ruhshunoslik hissiyotlar sifatida



o'rganadigan insondagi ko'pgina ma'naviy hodisalar axloqshunoslik tomonidan falsafiy-axloqiy tushunchalar tarzida tadqiq etiladi.

Axloqshunoslik va sotsiologiya. Axloqshunoslikning ijtimoiyshunoslik (sotsiologiya) bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin axloqshunoslikning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Axloqshunoslik esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Ilm dunyosidagi, xar qanday ilmning tarixisiz nazariyasi bo'lmaydi, degan xikmat, ayniqsa, axloqshunoslikka taaluqli. Zero axloqshunoslik tarixi axloqiy tafakkurning vujudga kelishi xamda uning taraqqiyoti qonunlarini o'rganadi, ma'naviy merosning ulkan, qismi bo'lmish axloqiy ta'limotlar, xikmatlar, pandlarni zamonaviy jamiyat xayotiga tadbiq etish va targ'ib qilish yo'llarni tahlil etadi. Garchand xar bir axloqiy kopsepsiya ma'lum bir mutafakkir muloxazalari va faoliyatining mevasi bo'lsa-da, u, moxiyatan, muayyan tarixiy davr talablaridan kelib chiqadi.

Xulosa. Etikaning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi yunon faylasuflari – Sokrat, Platon va Aristotel – axloqiy qadriyatlarning mohiyatini o'rganib, inson qanday yashashi kerakligi haqida bahs yuritgan. Aristotel o'zining "Nikomax axloqi" asarida baxt va ezgulik tushunchalarini tahlil qilgan. Keyinchalik Immanuel Kant axloqiy qarorlar uchun universal qoidalarni ishlab chiqdi, Jeremy Bentham va John Stuart Mill esa utilitarizm tamoyillarini ilgari surdi.



Bugungi kunda etika ilmiy va amaliy sohaga aylangan bo‘lib, biznes, tibbiyot, huquq va boshqa sohalarda axloqiy muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, etika insoniyat madaniyati va tafakkurining ajralmas qismi bo‘lib, u insonlarning qanday yashashi, qanday qarorlar qabul qilishi va jamiyat bilan qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonlig garovi- T O'zbekiston 2017-yil
2. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajakimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T: O'zbekiston 2017-yil
3. I.A.Karimov .Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezon bolsin.- Toshkent 1994-yil
4. Z.Davronov, "Falsafa" (1-qism) darslik, Fan va texnologiya-2019
5. Sh.Madayev, M.Kasimova "Falsafa" Toshkent-2019
6. Mamatov Maxmut "Falsafa" Zomin nashr-2025
7. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.
8. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
9. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go'zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.



10. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.
11. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI '." *TADQIQOTLAR. UZ* 40.4 (2024): 135-139..
12. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..
13. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.